

XUSUSIY KAPITALNI JALB ETISHDA DAVLAT KAFOLATLARI VA IMTIYOZLARINING AHAMIYATI

Bakiyeva Iroda Abdushukurovna

*Fan va texnologiyalar universiteti, iqtisodiyot kafedrasi professori,
iqtisod fanlari doktori
i_bakiyeva@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada xususiy kapitalni jalb etishda davlat kafolatlari va imtiyozlarining roli tahlil qilingan. Xususiy investorlar uchun qonuniy, moliyaviy va infratuzilmaviy kafolatlar, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlari investitsiya qarorlarida ishonchni oshirishda muhim omil sifatida ko'rsatildi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va manzilli imtiyozlar tizimi uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish va barqaror investitsion muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xususiy kapital, davlat kafolatlari, investitsiya imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya muhiti, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik, risklarni kamaytirish, institutsional qo'llab-quvvatlash.

Аннотация: В статье проанализирована роль государственных гарантий и льгот в привлечении частного капитала. Показано, что правовые, финансовые и инфраструктурные гарантии, а также налоговые и таможенные льготы являются важными факторами повышения доверия частных инвесторов при принятии инвестиционных решений. Механизмы государственно-частного партнёрства и система адресных льгот способствуют обеспечению долгосрочного экономического развития и формированию устойчивой инвестиционной среды.

Ключевые слова: частный капитал, государственные гарантии, инвестиционные льготы, государственно-частное партнёрство, инвестиционная среда, экономическое развитие, устойчивость, снижение рисков, институциональная поддержка.

Annotation: The article analyzes the role of state guarantees and incentives in attracting private capital. It is shown that legal, financial, and infrastructural guarantees, as well as tax and customs incentives, are important factors in increasing the confidence of private investors in investment decision-making.

Public-private partnership mechanisms and a system of targeted incentives contribute to ensuring long-term economic development and the formation of a stable investment environment.

Keywords: *private capital, state guarantees, investment incentives, public-private partnership, investment environment, economic development, sustainability, risk reduction, institutional support.*

Global iqtisodiyotda kechayotgan tub o'zgarishlar hamda moliyaviy va tabiiy resurslarning tobora cheklanishi sharoitida yirik infratuzilmaviy va investitsion loyihalarni faqat davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning samaradorligi izchil ravishda pasayib bormoqda. Mazkur holat iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muqobil moliyalashtirish manbalarini, eng avvalo, xususiy kapitalni faol jalb etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Bugungi kunda xususiy investitsiyalar barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, xususiy investorlar uchun investitsiya jarayonida kutilayotgan daromad miqdoridan ko'ra, loyiha doirasidagi xavfsizlik darajasi, huquqiy va moliyaviy barqarorlik, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oldindan aniqlanishi va minimallashtirilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bu jihatdan, davlatning investitsiya loyihalarida ishtiroki, xususan, kafolatlar berilishi, soliq va bojxona imtiyozlarining taqdim etilishi hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi xususiy kapital uchun ishonchli muhitni shakllantiradi. Aynan ushbu choralar investorlar nazarida o'ziga xos "xavfsizlik yostiqlashi" vazifasini bajarib, investitsion jozibadorlikni oshirish va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan iqtisodiyotda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish hamda xususiy sektorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qat'iy belgilab berilgan. Davlat rahbari o'z chiqishlarida ushbu jarayonning strategik ahamiyatiga alohida urg'u berib,

iqtisodiyotni liberallashtirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilayotganini ta'kidlab kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri ekanini ta'kidlab, "biz iqtisodiyotda davlat aralashuvini keskin kamaytirish, xususiy sektorga keng yo'l ochish maqsadida tizimli islohotlarni amalga oshiryapmiz, investor nafaqat o'z foydasini ko'rishi, balki davlatning himoyasini, qonunlarning kafolatini har qadamda his qilishi kerak", deb qayd etgan. Ushbu yondashuv investitsion muhitni yaxshilash, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda bozor mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash orqali xususiy kapitalning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan investitsiya jarayonlarida adolat, shaffoflik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan tizimni shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlanib, imtiyozlar berishda subyektiv yondashuvlardan voz kechish hamda real iqtisodiy natijalarga tayanish muhimligi qayd etilgan. Xususan, davlat rahbari bu borada "imtiyoz berishda biz korxonalarining real natijadorligi, yangi ish o'rinlari yaratishi va innovatsiyalarni olib kirishiga qarab yondashishimiz shart, imtiyoz – bu tekin berilgan mablag' emas, balki kelajak taraqqiyoti uchun tikilgan sarmoyadir", deya ta'kidlagan. Ushbu konseptual yondashuv davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlarning samaradorligini oshirish, investitsion resurslardan oqilona foydalanish hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur fikrlar xususiy kapitalni jalb etish jarayonida davlatning vazifasi faqatgina tartibga solish va nazorat qilish bilan cheklanmasdan, balki xususiy sektor bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, investorlarga ishonchli kafolatlar taqdim etish hamda qulay institutsional muhitni shakllantirishdan iborat ekanligini yaqqol namoyon etadi. Xususiy kapitalni iqtisodiyotga jalb qilishda davlatning o'ri va funksiyalari iqtisodiyot fanida turli nazariy maktablar va ilmiy yo'nalishlar doirasida keng qamrovli tadqiq etilgan bo'lib, ularning yondashuvlari davlatning bozor munosabatlaridagi ishtiroki, investitsiya risklarini taqsimlash mexanizmlari

hamda davlat-xususiy sheriklik modellarini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy nazariya vakillarining qarashlari xususiy kapitalni jalb etishda davlatning kafolatlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlarining muhim ahamiyatga egaligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Xususan, Jon Meynard Keyns investitsiyalar nazariyasida xususiy investorlar qarorlari ko'p jihatdan "animal spirits", ya'ni subyektiv ishonch va kutilmalarga bog'liq ekanini ta'kidlab, aynan davlat tomonidan taqdim etiladigan kafolatlar va barqaror siyosiy-iqtisodiy muhit ushbu ishonchni shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, neoklassik maktab vakili Robert Barro davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlarining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, kapitalga solinadigan soliq yukining kamayishi mehnat unumdorligi va real ish haqining oshishiga olib kelishini, imtiyozlar esa investitsiya-larning marjinal samaradorligini tezkor oshiruvchi muhim instrument ekanini asoslab beradi. O'z navbatida, Maykl Porterning raqobatbardoshlik va klasterlar nazariyasiga ko'ra, davlat imtiyozlari alohida tarmoqlarni sun'iy ravishda qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida emas, balki klasterlashuvni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Xususiy investorlar uchun davlat kafolatlari turli shakllarda namoyon bo'lib, ular investitsiya muhitining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, huquqiy kafolatlar alohida o'rin tutib, bunda qonunchilikning barqarorligi va izchilligi ta'minlanib, normativ-huquqiy bazada investor manfaatlarini yomonlashtiruvchi o'zgarishlar kiritilgan taqdirda ham, loyihaga nisbatan avvalgi qulay shartlar saqlanib qoladi, bu esa xususiy kapital uchun ishonchli himoya mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, moliyaviy kafolatlar davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda investitsiya faoliyatiga xos bo'lgan moliyaviy, talab yoki operatsion risklarning ma'lum bir qismi davlat tomonidan o'z zimmasiga olinadi. Bu esa investorlar zimmasidagi noaniqlik darajasini pasaytirib, yirik va uzoq muddatli loyihalarda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantiradi.

Uchinchidan, infratuzilmaviy kafolatlar investitsiya kiritilayotgan hududlarning elektr energiyasi, tabiiy gaz, transport-logistika tarmoqlari hamda zamonaviy aloqa

vositalari bilan uzluksiz va sifatli ta'minlanishini nazarda tutadi. Mazkur omillar ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlab, investorlar uchun qo'shimcha xarajatlar va texnik xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat kafolatlari mavjud bo'lgan loyihalarda xususiy sektor ishtirok etish ehtimoli o'rtacha 40–50 foizga yuqori bo'lib, bu kafolatlarning investitsion qarorlar qabul qilishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, xususiy kapitalni jalb etish maqsadida taqdim etiladigan soliq, bojxona va kredit imtiyozlari ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, bunday imtiyozlar investitsiya risklarini kamaytiradi, loyihalarning o'zini oqlash muddatini qisqartiradi hamda kapital aylanishini tezlashtirib, iqtisodiy faollikni oshiradi. Ikkinchi tomondan esa, mazkur rag'batlantiruvchi choralar budjet tushumlarining qisqarishiga olib kelishi, shuningdek, imtiyozlardan noto'g'ri yoki nomutanosib foydalanilgan taqdirda bozor raqobatini buzish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa, davlat kafolatlari va imtiyozlarini qo'llashda muvozanatli, manzilli va samaradorlikka asoslangan yondashuvni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Shu bois, ilmiy nuqtayi nazardan investitsiya jarayonlarida "maqsadli imtiyozlar" eng samarali rag'batlantirish mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Bunda imtiyozlar xususiy investorlarga avtomatik tarzda taqdim etilmaydi, balki ular tomonidan aniq va o'lchanadigan natijalarga erishilgan taqdirdagina qo'llaniladi. Jumladan, investor ma'lum hajmdagi eksport salohiyatini shakllantirganda, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganda yoki innovatsion mahsulotlar yaratishga erishgandagina davlat tomonidan belgilangan imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Mazkur yondashuv imtiyozlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularni iqtisodiy o'sishning real omillariga bog'lash imkonini beradi.

O'zbekiston tajribasi misolida erkin iqtisodiy zonalarda joriy etilgan imtiyozlar tizimi tahlil qilinganda, har bir 1 AQSh dollari miqdoridagi soliq imtiyozi o'rtacha 3–4 AQSh dollari hajmidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilayotgani kuzatilmoqda. Bu ko'rsatkich imtiyozlarning manzilli va natijadorlikka yo'naltirilgan holda qo'llanilishi investitsiya faolligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, xususiy kapitalni jalb etishda davlat tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlar va imtiyozlar oddiy moliyaviy ko'mak vositasi sifatida emas, balki investor bilan uzoq muddatli, o'zaro manfaatli va strategik hamkorlikni shakllantirishga qaratilgan kompleks siyosatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu yondashuv barqaror investitsion muhitni ta'minlash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'rganishlar natijalari asosida xususiy kapitalni jalb etish va uni uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirishda davlat kafolatlari hamda imtiyozlar tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, investitsion imtiyozlar siyosatini miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuvdan voz kechib, ularni sifat jihatidan baholash mexanizmlariga o'tkazish zarur. Ya'ni, imtiyozlar hajmi va turi investor tomonidan yaratilayotgan qo'shilgan qiymat darajasi, mahalliyashtirish ko'lami, texnologik murakkablik va qiymat zanjirining yuqori bo'g'inlarida ishtirok etishiga qarab tabaqalashtirilishi lozim. Bu yondashuv imtiyozlarning real iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, davlat kafolatlari mexanizmini raqamlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Investorlar uchun kafolatlarni olish jarayonlarini maksimal darajada shaffof va qulay qilish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda inson omilini kamaytirish maqsadida yagona elektron reyestr va raqamli monitoring tizimlarini yanada takomillashtirish talab etiladi. Bu esa investitsion muhitga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlat va xususiy sektor o'rtasida risklarni taqsimlashning aniq, huquqiy jihatdan mustahkamlangan va oldindan belgilangan mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, energetika va infratuzilma kabi kapital talabchan va uzoq muddatli loyihalarda moliyaviy, texnologik va talab risklarini adolatli taqsimlash investorlar faolligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, davlat kafolatlari va investitsion imtiyozlarning ilmiy asoslangan, manzilli va muvozanatli tizimi xususiy kapitalning mamlakat ichki bozorida uzoq muddatli faoliyat yuritishini ta'minlash, investitsiya risklarini kamaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi eng samarali instrumentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ – 537-son Qonuni. – Toshkent, 10.05.2019-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Investitsiya muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
5. Akabirxodjayeva, D., & Abdullayev, A. (2024). TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNING JAHON MOLIYA BOZORINING RIVOJLANISHIGA TA’SIRI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 89-96.
6. Jumanova, S. (2024). Analysis of PISA test results in Uzbekistan and prospects of preparing primary education students for PISA test. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
7. Mulaydinov, F. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
8. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Murotovich, M. F. (2024). O ‘ZBEKISTON KELAJAGINI SHAKLLANTIRISHDA JSTNING HAL QILUVCHI ROLI: MINTAQALAR BO ‘YICHA BARQAROR VA INKLYUZIV RIVOJLANISH. *University Research Base*, 498-502.
9. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINING O ‘SISHIDA FDI NING ROLI. *University Research Base*, 691-694.
10. Акабирходжаева, Д. Р., & Абдуллаев, А. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ НА РАЗВИТИЕ МИРОВОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 729-739.

11. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O'RNINI YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR, 2(1), 113-118.
12. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
13. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). The Role of WTO in Improving the Quality of Education. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.
14. Muratovich, M. F., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 237-240.
15. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). ISLAMIC FINANCE PROBLEMS AND SOLUTIONS: Study guide. *AMAZON PUBLICATION ISBN-13: 9798863282282*, 1, 200.
16. Otto, M., & Thornton, J. (2023). CHATGPTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: SUN'IIY INTELLEKTNING KASBIY MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 65-71.
17. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIYADA ISLOMIY MOLIYA, TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 60-64.